

MTTDA BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH VA BOLALAR NUTQINI O'STIRISH YUZASIDAN MUHOHAZALAR

Муқаддас Тожибоева Абдурахимовна

Azimova Ziyoda Ergashevna

Artikova Muhayyo Botiraliyevna

Qodirov Valijon Abdurahmanovich

Хасанов Шаробидин Азамович

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14928601>

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida badiiy adabiyot bilan tanishtirish masalalari hamda tarbiyalanuvchilar nutqini o'stirish bilan bog'liq jihatlar va buning pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: estetik tarbiya, kitobxonlik, og'zaki nutq, muloqot, tafakkur, tasavvur, psixologik jarayon, bilim, ko'nikma, malaka.

Аннотации. В статье освещаются задачи ознакомления с художественной литературой в дошкольных образовательных учреждениях, а также аспекты, связанные с развитием речи воспитанников и их психолого-педагогические особенности.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, чтение, устная речь, общение, размышление, воображение, психологический процесс, знание, умение, навык.

Annotation. The article deals with the introduction of fiction in preschool education, as well as aspects of speech development and its pedagogical and psychological features.

Keywords: aesthetic education, reading, speaking, communication, thinking, imagination, psychological process, knowledge, skills, competencies.

Badiiy adabiyot yosh avlodga estetik tarbiya berish vositasi bo'lish bilan birga milliy ruhni singdirish, milliy tarbiya berishning eng samarali omili sanaladi. Shu bois mamlakatimizda badiiy adabiyotni targ'ib etish, jamiyatda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning bu borada aytgan quyidagi so'zlari yurt ziyolilari, xususan, ta'lim xodimlari uchun g'oyat ahamiyatlidir: "Odamlarning ongu tafakkuri, dunyokarashini o'zgartirish, ma'naviy saviyasini yuksaltirish haqida gapiramiz. Lekin bu borada eng oddiy va ayni paytda eng ta'sirchan vosita – bu kitob emasmi? Men shunga aminman - kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q" [1:114]. Bu adabiyot vositasida tarbiyalash va ta'lim berish O'zbekistonda davlat miqyosidagi muhim masala ekanligiga dalolat qiladi.

Badiiy adabiyot insonga hayotining dastlabki yillaridan boshlab hamrohlik qiladi. Maktabgacha bo'lgan davrda badiiy adabiyot bilan tanishish keyinchalik umri davomida amalga oshiriladigan katta adabiy meros bilan tanishish uchun poydevor qo'yiladi. Badiiy adabiyot bolalarning aqliy, axloqiy va estetik ta'limining kuchli, samarali vositasi bo'lib, ularning nutqini rivojlantirish va boyitishga katta ta'sir ko'rsatadi. U dunyoqarashni kengaytiradi, his-tuyg'ularni boyitadi, tasavvurni rivojlantiradi, adabiy tilning jozibasini his qilish imkonini yaratadi.

Tadqiqotchilar bolalarning badiiy asarlarni tinglash va qabul qilishida ruhiy faollik, asarlar qahramonlariga nisbatan xayrixohlikni kuzatadilar. Misol uchun, ular ertak qahramonlari bilan bir talay kechinmalarni boshdan kechirishlari mumkin: keskin dramatik daqiqalarda qo'rquvni, zo'ravonlarga nisbatan nafratni, haqsizlikda e'tirozni, adolatni qo'lga

kiritilganda yengillikni, qoniqish hissini tuyishadi. Asar qahramonlariga ko'ngildosh, qayg'udosh bo'lish, asarda tasvirlangan syujet rivojlanishini kuzatib borish qobiliyati, hayotda ko'rgan-kechirgan voqealarni taqqoslash orqali realistik hikoyalar, ertaklarni oson, tez va to'g'ri tushunishga yordam beradi.

Badiiy adabiyot bolaga jamiyat va tabiat hayotini, odamlarning his-tuyg'ulari va munosabatlari dunyosini ochadi va tushuntiradi. Adabiyot bolaning tafakkuri va tasavvurini rivojlantiradi, his-tuyg'ularini boyitadi, ayni paytda o'zbek adabiy tilining imkoniyatlari, jozibasini uning ong-u shuuriga singdiradi. Uning tarbiyaviy, kognitiv va estetik ahamiyati beqiyosdir, chunki bolaning atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarini kengaytiradi, shakllanayotgan shaxsiyatiga ta'sir ko'rsatadi, nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'lim tizimining yangi shakl va mazmunda qayta tashkillanishi o'sib kelayotgan avlodning har tomonlama samarali rivojlanishi uchun barcha pedagogik resurslardan foydalanish zaruriyatini namoyon qiladi. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim jarayonini tashkil etishning ustuvor yo'nalishi bolaga individual yondoshish, maktabgacha yoshdagi bolalikning ichki qiymatini va maktabgacha yoshdagi bolaning tabiatini saqlab qolishdir" [2;67]. Bu esa o'z navbatida zamonaviy tarbiyachiga bolalar faoliyatini tashkil etish shakllari va usullarini tanlashda erkinlik beradi. Mazkur tanlovning asosiy natijasi uning bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari yig'indisigina emas, balki uning shaxsiy fazilatlarini bo'lishi kerak. Shu sababli bugungi kunda pedagogik faoliyat sifat jihatidan yangi, yanada moslashuvchan, innovatsion, ya'ni ta'lim jarayonining rivojlanishini ta'minlash sifatlariga ega bo'lmoqda. Tarbiyachi o'z faoliyatini tashkil etar ekan, uni zamon talablariga javob beradigan va ko'zlangan natijaga erishishga zamin hozirlaydigan tarzda tashkil qilishi kerak.

Tarbiyachilarning bu boradagi asosiy vazifalaridan biri bolalarni kitob dunyosiga yaqinlashtirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirishda yangi yondashuvlarga murojaat qilish, samarali ish shakllarini izlab topish, ayni paytda bolalar kitobxonligini rivojlantirishda ularning ota-onalarini ham jalb qilishidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi quyidagi omillarni hisobga olishi lozim:

- bolalarda badiiy adabiyotga qiziqishni rivojlantirish;
- badiiy so'zdan ta'sirlanish hissini shakllantirish, adabiy nutq me'yorlarini singdirish;
- kitob qahramonlarini tushunish, didaktik tahlil qobiliyati tarbiyalash;
- insoniy his-tuyg'usini rivojlantirish;
- she'rlarni o'qishda, dramatizatsiyalashda bolalarning badiiy va nutqiy ijro mahoratini oshirish.

Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish ularning o'rtasida keng tarbiyaviy vazifalarini amalga oshirishga va bola shaxsini har jihatdan kamol toptirishga yordam beradi. U bolaning kishilar hayoti haqidagi bilimlarini emotsional taassurotlarini boyitadi. Tarbiyachi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirar ekan, bolalarda quyidagi malakalarni shakllantiradi:

1. Badiiy asarni tinglash va tushunish
2. Asar qahramonlarini hatti-xarakatini baholaydi
3. Insonlardagi axloqiy sifatlar va nuqsonlarni ta'riflab beradi [4;87].

Adabiy asarning mazmuniga doir savollarga javob qaytarish kichik hajmdagi she'rlarni intonatsiyaga rioya qilib yodlab olish va ta'sirchan qilib aytib berish kabi ko'nikmalar shakllantirilib biriladi. Bola hikoya, she'r, ertak tinglayotganida quvonadi, huzurlanadi. Bu emotsional ta'sirlanish bolada badiiy adabiyotni estetik idrok etish, ya'ni uni san'at asari

sifatida his qilish qobiliyatini paydo bo'lishiga, unda axloqiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Tarbiyachi bolalarni badiiy asar bilan tanishtirar ekan, har bir bolada kitobga nisbatan qiziqish va muhabbat tuyg'ularini shakllantiradi.

Tarbiyachi nutqining samimiy bo'lishida quyidagi jihatlariga e'tibor qaratishi lozim:

- ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etishi, nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishi;

- Sof, aniq, ravon nutqqa ega bo'lishi, ya'ni diksiyasi talabga javob berishi;

- bolalar bilan nutqiy muloqotda bo'lganda yengil, sekin tempdagi o'rtacha baland ovozda nutqdan foydalanish;

- bolalar bilan so'zlashganda baland tonda gapirmaslik, qo'pol so'zlardan, adabiy til normalariga to'g'ri kelmaydigan mantiqsiz birikmalardan foydalanmaslik.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni birgina Til va nutq faoliyat markazidagi mashg'ulotlar bilangina boshqa rivojlantiruvchi markazlarida talab qilinadigan nutqiy vazifalarni amalga oshirib bo'lmaydi. Har bir mashg'ulotda faoliyat turi bilan bog'liq leksik birliklar va tushunchalarni bolalarga singdirib bormoqlik eng to'g'ri yo'l sanaladi. Masalan, ma'ishiy faoliyatga tabiat hodisalariga, qo'l mehnati va tabiatdagi mehnatga taalluqli so'zlar faqat tabiiy holda bolalarning shaxsan ishtiroklari jarayonidagina (ovqatlanish, yuvinish, kiyinish, o'simliklarni parvarish qilish, tabiatda mehnat qilish va hokazolar) ular lug'atiga kiritiladi.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, maktabgacha yoshda bola eng oddiy notiqlik sirlarini o'rgana boshlaydi, o'z fikrlarini mantiqan va ifodali bayon qiladi, u nafaqat so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va gap tuzishni, balki so'zlar qaysi tovushlardan va gaplar qaysi so'zlardan tashkil topishini anglab olishni o'rganadi. Bularning barchasi maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish, bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish uchun zarurdir.

«Ota-onalarning vazifasi esa farzandi nutqining to'g'ri rivojlanishi uchun g'amxo'rlik qilish va ijtimoiy – voqeyliklar asosida badiiy adabiyotga qiziqishini shakllantirishdan iborat»[3;123].

Tarbiyachi bolalarda badiiy adabiyotga qiziqishini jalb etishdan avval har bir bola haqida qandaydir yaxshi so'z aytishga, ularni dadillashtirishga harakat qilishi kerak. Masalan: «Quyionlarni boqishni Alisherga ishonib topshiraman. U jonivorlarni yaxshi ko'radi»; «Odina g'amxo'r va mehribon, u topishmoqlarni topishda ziyrak qiz», «Madina ertak va hikoyalarni ifodali aytib beradi», «Iroda – mehnatsevar va so'zlari dona-dona» va shunga o'xshash bolalarga berilgan baholar ularda o'ziga ishonchni, xatti-harakatlariga baho bera olishni vujudga keltiradi. Bu sifatlari qaysidir ertak, hikoya yoki boshqa asar qahramonlariga qiyosan aytilsa, yanada ta'sir kuchi ortadi. Alqovlar ta'sirida bolalar o'zlarining faol ishtiroki va a'lo xulqlari bilan javob berishga, o'z tengdoshlariga nisbatan samimiy bo'lishga harakat qiladilar. Eng asosiysi, bolalarda badiiy adabiyotga bo'lgan intilish, kitobga qiziqish kichik yoshdan shakllanadi, murg'ak yoshdan, muhtaram Prezidentimiz aytganlaridek, kitob insonga qanot bo'lishini [6] anglab yetadilar.

References:

1. YO'LDOSHEV, Q. O. Z. O. Q. B. O. Y., et al. "Adabiyot." *Toshkent-2019*.
2. Qodirov, Valijon. "Reflections on the formation of reflexive abilities in preschool education." *Science and innovation* 2.B11 (2023): 150-153.

3. Kadirov, Valijon, and Dildora Abdullajonova. "FICTION IS A FACTOR IN THE FORMATION OF NATIONAL EDUCATION AND SPIRITUALITY IN CHILDREN." *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры* 2.3 (2022): 124-127.
4. Valijon, Kodirov, Abdurakhmanovich Abdurakhmanovich, and M. M. Muhammadieva. "Integrated Didactic System in Preschool Education and Its Importance." *European Scholar Journal* 2.4 (2021): 17-18.
5. Kadirov, V. "THE IMPORTANCE OF GAMES IN DEVELOPING THE ABILITY OF INDEPENDENT THINKING IN CHILDREN." *Science and innovation* 3.B3 (2024): 56-62.
6. Хасанов, Шаробидин Азамович. "ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ЛИТЕРАТУРНОГО ОБУЧЕНИЯ." *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILOSOPHY, SOCIOLOGY, HISTORY AND POLITICAL SCIENCE*. 2018.
7. Ibraimov, X., Z. Azimova, and Z. Otaboeva. "Pedagogical peculiarities of studying group solidarity in the student community." *Science and innovation* 2.B12 (2023): 108-113.
8. Азимова, Зиёда Эргашевна. "Олий ўқув муассасаси маънавий-маърифий ишларининг педагогик назария ва амалиётда тутган ўрни." *Современное образование (Узбекистан)* 2 (2018): 26-35.
9. Азимова, Зиёда Эргашевна, and Нилуфар Мухаматумановна Муллаахунова. "Развитие речи учащихся 6 класса узбекских школ средствами произведений искусства на уроках русского языка как иностранного." *Science and innovation* 2.Special Issue 5 (2023): 638-641.
10. Азимова, З. Э. "Тарбиявий ишлар тизимини интеграл диагностик асосда такомиллаштириш (Олий таълим мисолида)." *Дисс. автореферати* (2018).
11. Азимова, З. Э. "Ўқувчиларнинг шахслараро муносабатлари интеграл диагностикаси. Дисс... канд. пед. наук." (2009).
12. Artikova, M. "DEMAND FOR A COMPETENCY-BASED APPROACH TO THE ACTIVITIES OF TEACHERS IN MODERN CONDITIONS." (2021).
13. Artikova, Muhayo Botiraliyeva. "Experience In Developing Entrepreneurship Skills In Foreign Countries." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 1.7 (2019): 250-255.
14. Artikova, Muhayo Botiraliyeva. "PECULIARITIES OF METHODOICAL WORK IN PREPARING PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL." *Science and Education* 2.1 (2021): 297-300.
15. Artikova, M. B. "THE FACTORS OF BRINGING CHILDREN UP IN THE MOOD OF MATERIAL AND SPIRITUAL INTEGRATED LIFE IN THE FAMILY (AS AN EXAMPLE OF PRIMARY SCHOOL AGE)." *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука* 6 (2018): 269-272.
16. Tojiboeva, Muqaddas, Nargiza Sattarova, and Nazokat Qanoatova. "Tradition In Abdulla Avloni's Poetry." *JournalNX* 7.11 (2021): 166-171.
17. Таджибаева, Мукаддас Абдурахимовна. "Традиционные образы в узбекской джадидской поэзии." *Проблемы востоковедения* 2 (56) (2012): 53-58.
18. Tojiboyeva, Ffd MUQADDAS, and Vositov Shavkatbek. "FOLLOW-UP, STABILITY, AND ARTISTIC DISCOVERY IN JADID LITERATURE." *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology* 17.6 (2020): 14576-14581.
19. Abdurahimovna, Tojiboyeva Muqaddas, and Bektasheva Gulbahor Rayimjonovna. "Begali

Qosimovning Jadid Matbuoti Masalasiga Yondashuv Mezonlari." *Miasto Przyszłości* 42 (2023): 58-63.

20. Muqaddas, Tojiboyeva. "'BOBURNOMA" DA KELTIRILGAN JOY NOMLARI IBRAT TALQINIDA." *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS*. Vol. 1. No. 11.02. 2023.

21. Muqaddas, Tojiboyeva. "LITERARY AND AESTHETIC VIEWS OF MAHMUDHOJA BEHBUDI." *Conferencea* (2022): 28-31.

22. Tojiboyev, Munavvarjon No'monjonovich. "ETHNOPONOMICS OF FERGANA VALLEY AND ITS SCIENTIFIC BASIS." *Archive of Conferences*. Vol. 24. No. 1. 2021.

23. Tojiboyeva, Muqaddas. "RELATIONS OF THE REPRESENTATIVES OF THE 20TH CENTURY LITERARY WORKERS TO THE SOURCES OF CLASSICAL LITERATURE." *Theoretical & Applied Science* 1 (2017): 39-42.